

YURTIMIZDAGI TARIXIY OBIDALARNING XOLATI VA O'RNI.

**Karimjonova Shoxsanam**

*Namangan davlat universiteti Ijtimoiy- iqtisod fakulteti.*

*Tarix yo'nalishi 3-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada bugungi kun nazari bilan qaraganda o'z tariximizga bo'layotgan e'tibotsizligimiz haqida so'z yuritiladi. Tarixiy madaniyatimizni nomoyon e'tib turuvchi madaniy merosimizga bo'lgan e'tibor mavzusida ayrim muloxazalar yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Milliy biylik, tariximiz, qalindarxona, inshootlar, qadryatlar, an'analar.*

"Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q"[1]. Bu ibora bugungi kunda ayniqsa o'tmishini, tarixini, milliylikini to'la bilmagan xalq uchun tegishli. Bizning necha yillik tariximizni korsatuvchi ko'plab kitoblar, arxiv hujjatlar haqida bilamiz. Ammo 100 marta eshitgan bir marta ko'rgan yaxshi deganlaridek bizning tariximiz nimalarga boyligini bugungi kunda saqlanib qolgan milliy boyligimiz yani, inshootlarimizda yaqol namoyan bo'ladi. O'zbekistonning har bir viloyatida har bir tumanida hattoki har bir chekka qishloqlarida ham tarixiy binolar yoki, o'z hududini tarixini yorituvchi muqaddas joylar borligini hammamiz bilamiz. Ularni tarixini, kelib chiqishini, paydo bo'lishini o'rganish orqali ham yurtimiz tarixini, uning boshidan kechirgan kunlari haqida hattoki oddiy kichkina qishloqning yaralish tarixini o'rganish orqali ham o'zlikni anglash mumkin. Aytib o'tish joyizki yurtimizda Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon kabi ko'plab buyuk, haybatli, hali ham o'zning jilosini, salobatini, ko'rkamligini yo'qotmagan inshootlarimiz, hukumdorlar, xonlar, va boshqa davlat lavozimida ishlovchi amaldorlar tomonidan qurdirilgan har xil binolar O'zbekiston tarixini ko'rsatib beradi. Bu hududlarga yil davomida millionlab sayoh, turistlar kelishadi va o'rganishadi. Bundan faxrlanmaslikning iloji yo'q. Lekin faqatgina shular orqali emas aksincha har bir viloyatlarda, tumanlarda hali ham saqlanib qolgan muqaddas joylarga ham e'tibor qaratish joyiz deb o'ylayman. Sababi maktabdagi o'quvchi avval o'zini, o'zligini anglashi lozim deb o'ylayman. Hamma yoshligidan

Buxorodagi, Xivadagi, Samarqanddagi, Qo'qondagi binolar haqida eshitadi yoki televidiniya orqali ko'rgadi. Ammo 70% yangi o'sib kelayotgan yoshlar o'z hududining tarixini, toponimikasi deyarli bilmaydi. Hattoki tarixiy, muqaddas joylarini hattoki eshitmagan ham.

Shuning uchun shu sohani ko'tarishga qaror qildim. Mamlakatimizda bunday joylarga e'tibor kam deyarli yoq desa ham bo'ladi. Aslida tarixni o'rgatishni shundan boshlash lozim. Avval o'zining hududini toponimikasini, tarixiy va muqaddas joylarini bilishdan boshlanadi tarix. Bilamiz tarixni o'rganish uni ommaga, olamga yoyishning eng osson va ishonchli yo'li bu maktab, oliygoh o'quvchilaridir. Har bir maktabda, oliygohda bir yilda bir marta katta ekskursiy, yoki kichik soyohatga olib chiqiladi.

To'raqo'rg'on tumani 8ta qishloq va 2ta qishloq-shahardan iborat.Unda o'rganilmagan muqaddas joylardan biri bu "Eshon tepa"."Eshon tepa"yodgorligi VII asrda paydo bolgan bo'lib,mahaliy xalq o'rtasida o'zining boy tarixi bilan ajralib turadi.Xattoki bu yerda Eshonning ramiz qabri ham joylashgan.Lekin bu joyga hech qanday etibor yoqligi tufayli hozir ko'rinishi ancha yomonlashgan.Yana bir muqaddas joylardan biri bu "Qalandarxona".Bu hududni eng odam gavjum to'planadigan maskanga aylantish mumkin.Chunki u yerda qalandarlarning ramziy bayrog' tug'i saqlanib qolgan.Keyingi tarixiy joy bu "Qirriq qiz qabristoni".Bu qabristonning nomiga alohida etibor qaratsak.Mahalliy axolining eng yoshi katta onaxonlaridan biri Tursunxon aya bu qabristonning yaralish davrini otalaridan eshitgan ekanlar va bunga guvoh bo'lganlar.Aytishlarida o'sha kezlari askarlardan qochgan 40qiz shu hududga kelib qolishadi va ularga taslim bo'lishni istashmaydi.Askalar ularni shu yerga ko'mib ketishadi.Hozirda ham bu qabrlar saqlanib qolgan.Ammo qurilish ishlari boshlanganligi uchun Qalandarxona ham Qirriq qiz qabristoni ham hozirgi kunda yol qurilish joyiga aylanib qolgan.Bu esa tariximizga yetkazilayotgan zararlardan biridir.

Mening taklifim shundan iboratki manashunday sayohatlatni katta katta tarixiy joylardan emas,oddiy hali ko'plab shaxslarga ham ayon bo'lmagan joylardan bosshlash kerak deb o'ylayman.Masalan men Namangan davlat universitetida Ijtimoiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasiman.Yozgi amaliyot davrida o'zim yashab turgan hududa yani,Namangan viloyati To'raqo'rg'on tumanidagi har bir qishloqdan kamida 2-3tadan tarixiy ammo u yerga e'tibor berilmagan.E'tibor berish u yoqda tursin hali o'rganilmagan va aholining 60% bilmaydigan muqaddas joylarni ko'zdan kechirdim.Shunda o'zimga xulosa qildim:--Men xech qanday tarixni bilmas ekanman,avval o'z hududimni tarixini,kelib chiqishini yaralish tarixini bilmay turib hech qanday tarixchi bo'lmasligimni angladim.Nafaqat men balki yetishib chiqayotgan barcha tarixchilar ongida bu narsa bo'lishi kerak.Shuning uchun ham bu mavzu bugungi kuning dolzarb mavzusiga aylantirish uchun ko'tardim.Nafaqat bunday muqaddas joylarni balki oddiy atrof muhutga e'tibor berilmayotganining sababi ne?Nima uchun bunchalar yoqadmiz?Nima sabab o'zligimizni,kimligimizni bilishga hohish yoq?Hammasining javobi bita.Bu hozirgi kunning dolzarb masalasi bo'lmish Vatanlarvarlik hissining kamayganligidan dalolat emasmi.Bu so'z hammaga ham tegishli emas.Insonlar dunyoni o'zlari hohlagandek yashaydilar.Ammo o'zligini,kimligini anglashay manqurt bo'lib yashashdan ko'ra yashamaga afzaldur.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yoqlimizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild .Toshkent :O'zbekiston. NMIU 2017 592 -bet
- 2.Karimov I.A Tarixiy xotirasiz kelajak yoql. \_\_T.:Sharq 1998
- 3.Karimov. I.A XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid,barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari \_\_T.:O'zbekiston 1997

- 4.Karimov. I.A Yuksak maʼnaviyat -yengilmas kuch \_\_T. : Maʼnaviyat 2008
- 5.Karimov. I.A Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida ostonasida. \_\_T.:Oʻzbekiston 2011
- 6.Naimov. N Buxoro jadidlari.Toshkent 2000
- 7.Ahmedov. S Jahon xazinasini javohirlari.Buxoro 2005
- 8.Hayitov.Sh Amir olimxon va Afgʻon amirlari.Buxoronoma 2002 26-yanvar
- 9.Abdurasulov. A.Xiva (Tarixiy-etnografik ocherklar).T.1997
- 10.Abdurahimova .N.A, Ergashev. F.R Turkistonda chor mustamlaka tizimi.T.:Akademiya.2002
- 11.Ziyayev H. Tarixning ochilmagan sahifalari.T.:2003
- 12.Bobojonov. D, Abdurasulov. M Firdavsmonand shahar. Xiva 2008
- 13 .Qosimov. Y Qoʻqon xonligi tarixi ocherklari.Namangan 1994 2.